

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025 yil yanvar-mart oylari uchun

- I.** Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II.** Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III.** Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV.** Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V.** Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025 yilning 1 aprel holatiga ko'ra Viloyatda 2981 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 777 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 26,1 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 676 tasi (22,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 280 tasi (9,4 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 215 tasi (7,2 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 aprel holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2909,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,6 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	2 909,2	103,6
Termiz shahri	283,6	103,5
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	115,8	135,2
Bandixon tumani	45,7	108,3
Boysun tumani	32,8	105,2
Denov tumani	261,4	112,6
Jarqo'rg'on tumani	262,6	98,4
Qumqo'rg'on tumani	233,2	112,1
Qiziriq tumani	25,0	56,3
Muzrabot tumani	148,7	98,7
Oltinsoy tumani	73,1	108,6
Sariosiyo tumani	99,6	105,0
Termiz tumani	116,1	98,8
Uzun tumani	133,9	106,2
Sherobod tumani	299,8	98,3
Sho'rchi tumani	167,0	93,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Sherobod tumanida (1392,4 ming so'm), Termiz shahrida (1363,5 ming so'm), Jarqo'rg'on (1073,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (985,3 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angor tumanida (132,2 %), Denov tumanida (109,9 %), Oltinsoy tumanida (106,0 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025 yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2704,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (93,0 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 50,8 mlrd so'm (1,7 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 91,6 mlrd so'm (3,1 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 62,8 mlrd so'm (2,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025 yilning yanvar-mart oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025 yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 1,5 ming tonna boshqa paxta chigiti (2024 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 53,6 % ga ko'paygan), 17,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (57,1 % ga ko'paygan), 1,5 mln litr aroq mahsulotlari (54,4 m. ga ko'paygan) hamda 7,4 ming tonna paxta tołasi (45,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Aroq, ming litr	86,1	27,9	1518
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	7578	4042	8116
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	11599	6988	3991
Neft bitumi, ming t	11,8	9,4	10,0
Tabiiy qumlar, ming t	-	9,2	2,3
Toshko'mir, ming t	60,9	77,3	68,0
Xom neft, ming t	18,7	18,6	16,0
Boshqa paxta chigiti, ming t	0,1	5,8	9,0
Kepak, ming t	4,8	2,8	5,3
Portlandsement, ming t	64,1	205,8	67,2

*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,7 % (2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 41,9 % (2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024 yilning yanvar-mart oylarida 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (1,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,3 % (22,3 %), quyi texnologiyali 71,6 % (76,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 208,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 94,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Elektrenergiya, mln.kvt.s	16,8	31,2	65,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,4	6,1	5,8



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,9 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 1,8 m. ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	2,1	2,1	4,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	22,8	17,2	31,3
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	3,1	8,0	7,5

*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan 1912,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 65,7 % ni tashkil etdi. 2024 yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 53,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyatiqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyl-hajmi-qiyimatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

